

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

Ro‘yxatga olindi
№ MO 10-23
2021 yil



O‘zbekiston Respublikasi Oliy va
o‘rta maxsus ta‘lim vazirining
2021 yil “25” dekabr dagi
538 - sonli buyrug‘i bilan
tasdiqlangan.

“Transport logistikasi”(transport turlari bo‘yicha)

yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta‘lim muassasalari pedagog kadrlarini
qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursining o‘quv dasturi

Toshkent – 2021

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLIV TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH
BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

*Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv dasturi Oliy, o‘rta maxsus va
professional ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini
Muvofiqlashtiruvchi kengashining
2020 yil 25.12. dagi 9 - sonli bayonnomasi bilan ma‘qullangan*

Tuzuvchilar: “Kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish” moduli:
yu.f.n., prof. V.Topildiev, t.f.n., dos. B.Sh.Usmonov, t.f.n., dos.
R.A.Xabibullaev
“Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish” moduli: i.f.d.,
prof. R.Nurimbetov, i.f.d., prof. F.Nazarova p.f.n., dos.
M.Dexkanova.
“Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish” moduli: p.f.d.,
prof. N.Muslimov, katta o‘qituvchi R.Ishmuxamedov
“Ta‘lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish”
moduli: p.f.d., prof. F.Zakirova, f.-m.f.n., dos. V.Karimova.
“Maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili” moduli: katta
o‘qituvchilar F.Boysarieva, N.Djabborova, S.Tadjibaeva,
U.Giyasova, Sh.Fayzullaeva
Maxsus fanlar bo‘yicha: t.f.d., prof.v.b. A.A.Nazarov, dotsentlar
A.Turg‘unboev, X.A.Usmanova S.Xudoyberganov katta o‘qituvchi
G.A.Djanalieva,.

Taqrizchilar: t.f.n., dotsent A.Abdurazimov TDTU. “Yer usti transport tizimlari”
kafedasi mudiri.

Xorijiy ekspert: t.f.d., D.V.Kapskiy BMTU “Avtotraktor” fakulteti
dekani (Belorussiya)

*O‘quv dasturi Toshkent davlat texnika universiteti Kengashining qarori bilan tasdiqqa
tavsiya qilingan (2021 yil _____dagi - sonli bayonnomasi).*

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 mart "Yuk va yo‘lovchi tashish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4230-son, 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30 iyul “Avtomobil transportida yo‘lovchilarni va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo‘nalishlar bo‘yicha tashish faoliyatini litsenziyalash yuzasidan davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 636-son, 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni Kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yoʻnalishining oʻziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, koʻnikma, malaka hamda kompetensiyalariga qoʻyiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining oʻquv dasturi quyidagi modullar mazmunini oʻz ichiga qamrab oladi:

I. Pedagogning professional faoliyatidagi innovatsiyalar

- 1.1. Kredit modul tizimi va oʻquv jarayonini tashkil etish.
- 1.2. Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantiri.
- 1.3. Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish.

II. Pedagogning axborot va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish

- 2.1. Taʼlim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish.
- 2.2. Maxsus maqsadlarga yoʻnaltirilgan ingliz tili.

III. Mutaxassislik fanlar

- 3.1. Intellektual mulk obʼektlarining huquqiy muhofazasi
- 3.2. Transportda inson omili.
- 3.3. Avtomobillarda tashish va transport logistikasi.
- 3.4. Temir yoʻldan foydalanish ishlarini boshqarish.
- 3.5. Yoʻl harakatini tashkil etish.

IV. Malakaviy attestatsiya

Kursning maqsadi va vazifalari

Oliy taʼlim muassasalari “Transport logistikasi” (transport turlari boʻyicha) taʼlim yoʻnalishlari va mutaxassisliklari umumkasbiy va mutaxassislik fanlardan dars beruvchi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning innovatsion yondashuvlar asosida oʻquv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilgʻor tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni oʻzlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur boʻladigan kasbiy bilim, koʻnikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek, ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- “Transport logistikasi” (transport turlari boʻyicha) taʼlim yoʻnalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, koʻnikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

-pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

-mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta'minlash;

-mutaxassislik fanlar sohasidagi o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarini o'zlashtirish;

“Transport logistikasi”(transport turlari bo'yicha) yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo'yiladigan talablar:

“Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish”, “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish”, “Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish”, “Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili” modullari bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar tegishli ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari bilan belgilanadi.

Mutaxassislik fanlar bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- intellektual mulk ob'ektlarining huquqiy muhofazasi asoslarini;
- “haydovchi-avtomobil-yo'l-muhit” tizimining asosiy tasniflarini;
- haydovchining qobiliyati va kasbiy tayyorgarligini;
- haydovchining fiziologik va psixofiziologik xususiyatlarining transport vositasini boshqarishga ta'sirini;
- haydovchining shaxsi va kasbiy faoliyatini;
- charchoq va uning haydovchining ish qobiliyatiga ta'sirini;
- yo'lovchilar avtovokzallari va avtostansiyalarini;
- avtomobil transportida yuk tashishni tashkil etishning asosiy elementlari va ularning asosiy ish ko'rsatkichlarini;
- avtomobil transportida yuk tashish asoslarini;

- yo'lovchi va yuklarni tashishning jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini;

- logistikaning funksional sohalarini;
- logistik tizimlarning funksional farqlanishida ishlab chiqarish logistikasining o'rnini.

- omborlar klassifikatsiyasi va turlarini;

- logistik markazlar, ularning ahamiyatini va xususiyatlarini;

- temir yo'l ajratish punktlarining nazariy asoslarini;

- temir yo'ldan foydalanish ishlarining asosiy ko'rsatkichlarini;

- manyovr ishlari va ularning tasnifini;

- saralash stansiyalarida poezdlarni tuzish texnologiyasini;

- poezdlar harakati grafigining turlarini;

- yo'l harakatini tashkil etish fanining maqsad va vazifalarini;

- yo'l harakatini tashkil etishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni;

- yo'l harakatini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari va usullarini;

- intellektual mulk ob'ektlarining huquqiy muhofazasi asoslarini

- yo'l harakatini tashkil etishning umumiy va o'ziga xos jihatlari bo'yicha

bilimlarga ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- ishlab chiqarishda intellektual mulk ob'ektlaridan samarali foydalanish;

- yo'l vaziyatlarini baholash va bashorat qilish;

- tashishni tashkil etishning asosiy elementlaridan foydalanish;

- omborlar klassifikatsiyasi va turlaridan foydalanish;

- temir yo'l stansiyalari ishini boshqarish va rejalashtirish;

- temir yo'l liniyalarining o'tkazuvchanlik qobiliyatini hisoblash;

- yo'l harakatini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari va usullari ishlab chiqish **ko'nikmalarga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- intellektual mulk ob'ektlarining huquqiy muhofazasiga tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish;

- axborotlarni qabul qilish va ularni qayta ishlash;

- haydovchining ish o'rni va xarakat havfsizligini ta'minlash;

- avtomobillarda yo'lovchilarni tashishni tashkil etish

- avtomobil transportida yo'lovchilar va bagajni tashishni tashkil etish;

- manyovr ishlari va ularni me'yorlash;

- vagon oqimlarini tashkil etish;

- temir yo'l uchastkalarida mahalliy ishlarni tashkil etish;

- taqsimotni rejalashtirish blok-sxemasini tuzish *malakalariga* ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

- innovatsion intellektual mulk ob'ektlarini amaliyotga joriy qilish;
- haydovchining ish qobiliyatidan to'g'ri foydalanish yo'llarini tatbiq etish;
- haydovchining ish qobiliyati bosqichlarini to'g'ri taqsimlash.
- haydovchi ish vaqti davomiyligini uning ishonchligiga ta'siri asosida tashkil etish;
- yo'lovchi va yuk tashish texnologiyalari tizimlari va transport vositalari harakatini tashkil etish *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

Kurs hajmi

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi 288 soatni tashkil etadi. Bunda o'quv dasturining 144 soat hajmi ishdan ajralmagan mustaqil malaka oshirish shakllari asosida, 144 soati to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) malaka oshirish shaklida ishdan ajralgan holda amalga oshiriladi. Malaka oshirishning bevosita shaklida bir haftadagi o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi 36 soatni tashkil etadi. Attestasiyadan muvaffaqiyatli o'tgan kurs tinglovchilariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi PF-4732-son Farmoni 3-ilovasi bilan tasdiqlangan davlat namunasidagi malaka attestati beriladi.

“TRANSPORT LOGISTIKASI” (TRANSPORT TURLARI BO‘YICHA) YO‘NALISHI BO‘YICHA QAYTA TAYYORLASH VA MALAKA OSHIRISH KURSINING O‘QUV MODULLARINING MAZMUNI

I. PEDAGOGNING PROFESSIONAL FAOLIYATIDAGI INNOVATSIYALAR

1.1. Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish.

Xorijiy davlatlardagi kredit ta'lim tizimlari: Amerika Qo'shma Shtatlari kredit tizimi (USCS), Kreditlarning to'plash va o'tkazishning Britaniya tizim (SATS), Yevropa kredit tizimi (ECTS), Universitet kreditlarini o'tkazishning Osiyo - tinch okeani tizimi (UCTS). Kredit tizimi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta'minlashning innovatsion metodlari. Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishini rejalashtirish va tashkil qilish. Kredit-modul tizimida pedagoglar faoliyati. Kredit-modul tizimida o'quv jarayonining uslubiy ta'minoti. Sillabus. Ta'lim natijalari (Blum taksonomiyasi asosida). Bilim darajalari. Ta'lim natijalarini baholash usullari.

Ta'lim sohasini boshqarishning huquqiy asoslari. Ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmuni. Pedagog xodimlarning mehnat munosabatlarini tartibga solish. Ta'lim muassasalarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy asoslari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim tizimiga oid qabul qilgan farmonlari, qarorlari va farmoyishlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta'lim tizimiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlari.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlari. Davlat ta'lim standartlari, tegishli ta'lim (mutaxassislik) yo'nalishlari bo'yicha davlat ta'lim standarti, o'quv rejalar va fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablar. O'quv rejalar va o'quv fanlari dasturlarini takomillashtirish tamoyillari. O'quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish metodlari.

1.2. Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish.

O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi hamda "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining mazmuni va mohiyati.

O'zbekiston Respublikasida ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning maqsadi, vazifasi va uning metodologik asoslari. Ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish va innovatsion faoliyatning huquqiy asoslari. Ilmiy ishlanmalar va tijoratlashtirish ob'ektlari. Innovatsion ishlanmalar, davlat ilmiy-texnik dasturlari, loyihalari, startap-loyihalarni rasmiylashtirish. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi «Universitet 3.0» konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish.

Zamonaviy universitetlarda texnologiyalar va loyiha boshqaruvi. Fan, ixtirochilik va texnologiyalar transferini rivojlantirish va innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish.

Infratuzilma va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish. Ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish. Pedagogning innovatsion faoliyatini rivojlantirish. Professor-o'qituvchining tadqiqotchi sifatida nashr faolligini rivojlantirish. Xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalari va ularning tavsiflari. Ilmiy maqolalarga qo'yilgan talablar, maqolani tayyorlash, chop etish tartiblari. Pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini Scopus, Science Direct, Mendeley tizimlari asosida takomillashtirish.

1.3. Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish.

Professional o'qituvchi shaxsi. Pedagogning kompetentligi va kreativligi. Pedagogning kasbiy professionalligi va uni innovatsion faoliyatda namoyon bo'lishi. Kasbiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonida tayanch (soft skills), maxsus (hard skills) kompetensiyalar mazmuni. Modulli-kompetentli, integrativ, innovatsion-kreativ yondashuvlar. Ta'lim jarayonini loyihalash va modellashtirish pedagogning kasbiy professional ijodkorligini rivojlantirish omili.

O'quv mashg'ulotlarining zamonaviy turlarini (loyiha, aralash ta'lim, virtual laboratoriya, debat) tashkil etish va o'tkazish metodikasi. Talabalarda tanqidiy, o'zini-o'zi (motivatsion, intellektual, amaliy-faoliyatli, faol kommunikatsiya va jamoaviy ish) rivojlantirish va kreativ fikrlashni shakllantirish usullari (dizayn-fikrlash, skamper va x.q.). Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning zamonaviy shakllari.

Steam-ta'lim (Science – aniq fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art – ijodiy san'at, Mathematics – matematika) va STEM-ta'lim (fan, texnologiyalar, robot texnikasi, injeneriya va matematika) xususiyatlari.

II. PEDAGOGNING AXBOROT VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.

2.1. Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish.

Raqamli texnologiyalarva ularning didaktik imkoniyatlari. Ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish. «Elektron universitet» va uning xususiyatlari.

Vebinar, onlayn ma'ruza, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga joriy etish. Masofaviy ta'lim platformalari va ulardan foydalanib, ta'lim jarayonlarini tashkil etish.

Ta'lim jarayonlarida «bulutli texnologiyalar»dan foydalanish. Bulutli xizmatlaridan foydalangan holda o'quv jarayonini va axborot ta'lim maydonini takomillashtirish.

Multimediali interaktiv o'quv-uslubiy qo'llanmalarni va elektron ta'lim resurslarini yaratish, ulardan ta'lim tizimida foydalanish. QR-kod va undan foydalanish.

Pedagogik faoliyatda interaktiv infografika vositalaridan foydalanish.

2.2. Maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili.

Maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili (English for Specific Purposes) – kasb sohasidan kelib chiqib ingliz tilini o‘rgatish. Kasb soha vakillari tomonidan minimal grammatika (Present Indefinite Tense, Present Continuous Tense, Past Indefinite Tense, Future Indefinite Tense) hamda sohaga oid faol so‘zlarni (minimal 400) yoddan bilishi. Grammatika va leksikani kommunikativ maqsadlarda o‘rgatishga zamonaviy yondashuv. Ingliz tilida autentik vaziyatlarni tahlil qilish. Tinglovchilarda autentik vaziyatlarga oid: e-mail yozish, so‘zlashish (ilmiy yo‘nalishi haqida), tushunish (jarayonni tinglab tushunish) va o‘qib tushunish (gazeta va jurnallardagi kasb sohasiga oid maqolani o‘qish) ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Sohaga yo‘naltirilgan mavzularda til ko‘nikmalarini rivojlantirish, mutaxassislik fanlarini xorijiy tilda o‘qitishni loyihalashtirish. Ilmiy tadqiqotlarga yo‘naltirilgan til ko‘nikmalarini o‘zlashtirish, ilmiy matnlarning rezyumesini tayyorlash, xorijiy adabiyotlar bilan ishlash. Xorijiy mutaxassislar bilan muloqot stereotiplari. Elektron xatlar yozish, xorijiy tilda taqdimotlar tayyorlash.

Kundalik va ijtimoiy hayotga oid mavzular: Shaxs va shaxsiyat. Oziq-ovqat. Sihat-salomatlik. Oilaviy qadriyatlar. Shahar va qishloq hayoti. Dam olish va sport bilan shug‘ullanish. Kasb-hunar va ishbilarmonlik. Ommaviy axborot. Munosabatlar. Tibbiyot, ilm-fan, zamonaviy texnologiyalar sohasidagi etika masalalari.

Rezyume to‘ldirish, madaniy hordiq, telefonda suhbat. Sayohat va turizm, transport sohasi, biznes faoliyat, kashfiyotlar, san‘at, fan, ta‘lim va texnologiya sohasi, atrof-muhitni muhofaza qilish. Sohaga oid davrning eng dolzarb muammolarini o‘rganish, muhokama va tahlil qilish.

III. MUTAXASSISLIK FANLAR

3.1. Intellektual mulk ob‘ektlarining huquqiy muhofazasi.

Intellektual mulk ob‘ektlari. Asosiy tushunchalar. IMO sohasida O‘zbekiston qonunchiligi. Me‘yoriy hujjatlar va ularning turlari. IMolarini litsenziyalash.

O‘zR Adliya vazirligi huzuridagi IMA ning yangi tuzilmasi (2019 yil). Intellektual mulk huquqi va jamiyatning rivojlanishi. Ilmiy kashfiyotlar va uning ob‘ektlari. EHM uchun dasturlar va ma‘lumotlar bazalari. Ixtiro, ixtiro turlari. Ixtiroga patent berish uchun talabnoma hujjatlari.

Intellektual mulk mahsulotlarining noan'anaviy ob'ektlari. Foydali model, sanoat namunalari, tovar belgilari va ularning kelib chiqish joylari.. Patent axboroti. Xalqaro patent tasnifi.

3.2. Transportda inson omili

“Haydovchi-avtomobil-yo‘l-muhit” tizimida haydovchining o‘rni. “Haydovchi-avtomobil-yo‘l-muhit” tizimining asosiy tasniflari. Haydovchining qobiliyati va kasbiy tayyorgarligi. Haydovchining fiziologik va psixofiziologik xususiyatlarining transport vositasini boshqarishga ta’siri. Axborotlarni qabul qilishva ularni qayta ishlash.

Haydovchining psixofiziologik xususiyatlarining transportni boshqarishga ta’siri. Haydovchining axborotni sezish kanallari. Haydovchining qaror qabul qila olishi.

Haydovchining shaxsi va kasbiy faoliyati. Yo‘l vaziyatlarini baholash va bashorat qilish. Alkogol va narkotik mastlik. Haydovchining ish qobiliyati.

Haydovchining ish o‘rni va xarakat havfsizligi. Charchoq va uning haydovchining ish qobiliyatiga ta’siri. Emotsional charchoq. Ish qobiliyati bosqichlari. Haydovchi ish vaqti davomiyligi.

3.3. Avtomobillarda tashish va transport logistikasi

Avtomobillarda yo‘lovchilarni tashishni tashkil etish. Avtomobil transportida yo‘lovchilar va bagajni tashish. Avtobuslarda yo‘lovchilar tashish xavfsizligini ta’minlash. Yo‘lovchilar avtovokzallari va avtostansiyalari.

Avtomobil transportida yuk tashishni tashkil etishning asosiy elementlari va ularning asosiy ish ko‘rsatkichlari. Avtomobil transportida yuk tashish asoslari. Tashishni tashkil etishning asosiy elementlari. Avtomobil transporti asosiy ish ko‘rsatkichlari.

Logistikaning funksional sohalari. Xarid logistikasi Logistik tizimlarning funksional farqlanishida ishlab chiqarish logistikasining o‘rni. Ishlab chiqarish logistikasi. Omborlar logistikasi. Omborlar klassifikatsiyasi va turlari. Omborlarda bajariladigan logistik operatsiyalar. Taqsimot logistikasi. Taqsimotni rejalashtirish blok-sxemasi.

Logistik markazlar Logistik markazlar va ularning ahamiyati. Logistik markazlarning xususiyatlari. Logistik usullarni qo‘llash orqali sarf-xarajatlarni kamaytirish. Logistikada samaradorlik. Uzoq muddatli moliyaviy xamkorliklarni tashkil etish va ularni rivojlantirish.

3.4. Temir yo‘ldan foydalanish ishlarini boshqarish

Temir yo‘l ajratish punktlarining nazariy asoslari. Temir yo‘l stansiyalari haqida umumiy ma’lumotlar. Temir yo‘ldan foydalanish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari. Temir yo‘l stansiyalari ishini boshqarish va rejalashtirish.

Manyovr ishlari va ularni me'yorlash. Manyovr ishlari va ularning tasnifi. Saralash stansiyalarida poezdlarni tuzish texnologiyasi. Vagon oqimlarini tashkil etish.

Poezdlar harakati grafigi va temir yo'llarning o'tkazuvchanlik qobiliyati. Poezdlar harakati grafigining turlari. Temir yo'l uchastkalarida mahalliy ishlarni tashkil etish. Temir yo'l liniyalarining o'tkazuvchanlik qobiliyatini hisoblash.

3.5. Yo'l harakatini tashkil etish

Yo'l harakatini tashkil etish fanining maqsad va vazifalari. Yo'l harakati tushunchasi. Yo'l harakatini tartibga soluvchi me'yorlar. Yo'l harakatini faoliyat ko'rsatishining tizimli xarakteri. Yo'l harakatini tashkil etishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Yo'l harakati xarakteristikalarini. Yo'l harakati xarakteristikalarini tushunchasi. Transport oqimi tushunchasi. Transport oqimi xarakteristikalarini. Transport oqimining sifat darajasi.

Yo'l harakatini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari va usullari. Yo'l harakatini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari va usullari. "Haydovchi-Avtomobil-Yo'l-Muhit" kompleksining normal faoliyat ko'rsatishi. Yo'l harakatini tashkil etishning turli darajalari va yo'nalishlari. Turlicha sharoitlarda yo'l harakatini tashkil etish.

Yo'l harakatini tashkil etish bo'yicha amaliy tadbirlar. Yo'l harakatini tashkil etishning umumiy va o'ziga xos jihatlari. Boshqarilmaydigan chorrahalarda harakatni tashkil etish. Boshqariladigan chorrahalarda harakatni tashkil etish. Aniq sharoitlarda yo'l harakatini tashkil etish.

IV. MALAKAVIY ATTESTATSIYA

Tinglovchilarning malakaviy attestatsiyasi kasbiy, o'quv-metodik va ilmiy-metodik faoliyati natijalari (elektron portfolioda qayd etilgan ko'rsatkichlari), kursni tamomlagandan keyingi onlayn test sinovlari hamda Attestatsiya komissiyasida bitiruv ishini himoya qilish asosida o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Mustaqil malaka oshirish quyidagi shakllarni o'z ichiga oladi: ochiq o'quv mashg'ulotlari va mahorat darslarini tashkil etish; iqtidorli va iste'dodli talabalar bilan ishlash; ilmiy konferensiyalarda ma'ruza bilan qatnashish; ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish; ko'rgazma va tanlovlarda ishtirok etish; ilmiy loyihalarda ishtirok etish; xalqaro (impakt-faktorli) nashrlarda maqolalar e'lon qilish; ixtiro (patent), ratsionalizatorlik takliflari, innovatsion ishlanmalarga mualliflik qilish; monografiya, mualliflik ijodiy ishlar katalogini tayyorlash va nashrdan chiqarish; o'quv adabiyotlari (darslik, o'quv qo'llanma, metodik qo'llanma)ni tayyorlash va nashrdan chiqarish; falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun himoya qilingan dissertatsiyaga ilmiy rahbarlik qilish.

Pedagog kadrlarning mustaqil malaka oshirish natijalari elektron portfolio tizimida o'z aksini topadi.

Mustaqil malaka oshirish davrida pedagoglar asosiy ish joyi bo'yicha pedagogik amaliyotdan o'tadilar. Pedagogik amaliyot davrida pedagog asosiy ish joyi bo'yicha kafedraning yetakchi professor-o'qituvchilarini 2 ta darsini kuzatadilar va tahlil qiladilar hamda kafedra a'zolari ishtirokida talabalar guruhi uchun 1 ta ochiq dars o'tkazadi. Ochiq dars tahlili hamda pedagog tomonidan kuzatilgan darslar xulosalari kafedraning yig'ilishida muhokama etiladi va tegishli kafedraning bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Shuningdek, mustaqil malaka oshirish jarayonida tinglovchi qo'yidagi bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishi lozim:

- ta'lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyalashni tashkil etish, kadrlar buyurtmachilari va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'quv rejalari va fanlar dasturlarini shakllantirish;

- o'quv mashg'ulotlarining har xil turlari (ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya mashg'ulotlari, kurs ishlari loyihalari, malaka bo'yicha amaliy mashg'ulotlar)ni tashkillashtirish;

- talabalar o'rtasida milliy mustaqillik g'oyalari asosida ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish, ta'lim jarayoni qatnashchilari bilan o'zaro munosabatlarda etika normalari va nutq madaniyati, talabalarning bilim va ko'nikmalarini nazorat qilishni tashkil etish va ilmiy-metodik ta'minlash, iqtidorli talabalarni qidirib topish, tanlash va ular bilan ishlash metodlarini bilish va amalda qo'llash;

- oliy ta'limda menejment va marketing asoslarini bilish va amaliy faoliyatga tatbiq etish.

- mustaqil ta'lim olish yo'li bilan o'z bilimlarini takomillashtirish.

Ko'chma mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Ko'chma mashg'ulotlar nazariy va amaliy mashg'ulotlarda olingan bilim hamda ko'nikmalarni yanada mustahkamlash maqsadida oliy ta'lim muassasalari, iqtisodiyot tarmoqlari soha korxonasi va tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot muassasalarda tashkil etiladi.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

ADABIYOTLARRO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.

2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.

3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.

4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.

5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.

7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-4732-sonli Farmoni.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-sonli Farmoni.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 mart "Yuk va yo‘lovchi tashish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4230-sonli Qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may "O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-5729-son Farmoni.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil. 7 iyun "Avtomobil transportida yuklarni xalqaro tashishni yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-4353-sonli Qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust "Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida"gi PF-5789-sonli Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-6097-sonli Farmoni

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 16 mart "Toshkent shahar yo‘lovchi transporti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi PQ 157-sonli Qarori

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr "Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi 797-sonli Qarori.

21. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish qoidalarini hamda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish xavfsizligini ta‘minlashga doir talablarni tasdiqlash haqida"gi qarori. 2003-yil 4-noyabr, 482-son

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Toshkent shahri va Toshkent viloyatida yo‘lovchilar tashish xavfsizligini ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" 2006 yil 28 fevraldagi PQ-294-sonli Qarori.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Avtomobil transportida yo‘lovchilar tashish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatining alohida turlarini amalga oshirishni tartibga solish to‘g‘risida" 2006 yil 9 martdagi PQ-303-sonli Qarori.

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Toshkent shahrini yo‘lovchi avtobuslar bilan qo‘shimcha ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida" 2008 yil 6 fevraldagi PQ-788-sonli Qarori.

25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent shahrini yo‘lovchi tashish avtobuslari bilan ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2009 yil 6 maydagi PQ-1109-sonli Qarori.

26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent shahrida yo‘lovchi tashish transportini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 11 martdagi PQ-129-sonli Qarori.

27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent shahrida yo‘lovchi tashish transportini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2013 yil 9 oktabrdagi PQ-2048 sonli qarori.

28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.06.2019 y. PQ-4353-son "Avtomobil transportida yuklarni xalqaro tashishni yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Qarori

29. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 26 yanvardagi 20-sonli “Toshkent shahrida transport infratuzilmasi ob‘ektlarini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori.

30. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 16 fevral O‘zbekiston Respublikasida xavfli yuklarni avtomobil transportida tashish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida 35-son qarori.

31. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 17 sentabrdagi 273-sonli “Umumiy foydalaniladigan transportda yo‘lovchi tashuvchilar faoliyatini hamda ularni moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” qarori.

32. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 12 noyabrdagi 308-sonli “Shahar yo‘lovchi tashish transporti tizimini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori.

33. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30 iyuldagi 636-son “Avtomobil transportida yo‘lovchilarni va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo‘nalishlar bo‘yicha tashish faoliyatini litsenziyalash yuzasidan davlat xizmatlariko‘rsatishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori.

34. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.03.2019 y. PQ-4230-son "Yuk va yo‘lovchi tashish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori.

35. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 16 martdagi “Toshkent shahar yo‘lovchi transporti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 157-son qarori.

36. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.12.2018 y. 975-son "Yo‘l-patrul xizmati xodimlarining yo‘l harakati qatnashchilari bilan o‘zaro munosabatlari hamda maxsus moslamalardan foydalanishi tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori.

37. Yo‘l-patrul xizmati xodimlarining yo‘l harakati qatnashchilari bilan o‘zaro munosabatlari hamda maxsus moslamalardan foydalanishi tartibi to‘g‘risida Nizom (O‘zR VM 01.12.2018 y. 975-son qaroriga ilova).

38. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 26.07.2018 y. 584-son "Avtomobil yo‘llari infratuzilmasini yanada rivojlantirish va yo‘l harakatini tashkil etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori.

39. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.05.2018 y. 377-son "O‘zbekiston Respublikasi yo‘l xavfsizligini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori.

40. Postanovlenie Prezidenta Respubliki Uzbekistan ot 7 iyulya 2019 goda v oblasti intellektualnoy sobstvennosti «Gosudarstvennyy» O merax po sovershenstvovaniyu upravleniya Postanovleniem PP-4380.

41. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 28 yanvardagi "Intellektual mulk ob'ektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi PQ-4965-sonli qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

42. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Yu. i dr. *Sovremennye obrazovatelnye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya.* – Novosibirsk: Izdatelstvo sRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>

43. Arifjanova N.Z., Yoqubov M.F. *Avtomobillarda yuk va passajirlarni tashish asoslari (masalalar to‘plami) : "Fan", 2012g.- 93 b.*

44. Butaev Sh.A., Mirzaaxmedov B.M., Jo‘raev M.N., Do‘rmanov A.Sh., Baxodirov.B. *Tashish jarayonlarini modellashtirish va optimallashtirish. -T.: "Fan", 2013g.- 268 b.*

45. Butaev Sh.A., Sidiqnazarov K.M., Murodov A.S., Qo‘ziev A.U. *Logistika. Monografiya. T.: "EXTREMUM-PRESS", 2012.- 580 b.*

46. Belogurov A.Yu. *Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshchestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.*

47. David Spencer "Gateway", Students book, Macmillan 2012.

48. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.

49. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. *An‘anaviy va noan‘anaviy ta‘lim. – Samarqand: "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi" nashriyoti, 2019. 312 b.*

50. Mitchell H.Q., Marileni Malkogianni "PIONEER", B1, B2, MM Publiciations. 2015. 191.

51. Ibraymov A.Ye. *Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/ tuzuvchi. A.Ye. Ibraymov. – Toshkent: "Lesson press", 2020. 112 bet.*

52. Ryabchinskiy A.I. Reglamentatsiya aktivnoy i passivnoy bezopasnosti avtotransportnykh sredstv: ucheb. Posobie dlya vuzov I.S. «Akademiya» 2006 g. – 290 str.

53. Introduction to Logistics Systems Planning and Control. John Wiley & Sons, Ltd. The Atrium, Southern Gate, Chichester West Sussex, 2014 England.

54. Donald J. Bowersox, David J. Closs Logistical Management. The Integrated Supply Process. The McGRAW-HILL COMPANIES, INC. 2008. New York.

55. Transport Planning and Traffic Engineering. M.G.H. Bell, P.W. Bonsall, G.R. Leake, A.D. May, C.A. Nash and C.A. O’Flaherty. Butterworth-Heinemann is an imprint of Elsevier Linacre House, Jordan Hill, Oxford. OX2 8OP, 2006. UK.

56. Butaev Sh.A., Sidiknazarov K.M., Murodov A.S., Qo‘ziyev A.U. Logistika (Yetkazib berish zanjirida oqimlarni boshqarish). – Toshkent: “Extremum Press”, 2012. 580b.

57. Logistika: Obslujivanie potrebiteley. Uchebnik. L.B. Mirotin M.: Infra 2002 g. 186 str.

58. O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘llarida poyezdlar harakati va manyovr ishlari bo‘yicha yoriqnoma, Yo‘riqnoma, 2015.

59. O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘llaridan texnikaviy foydalanish qoidalari, Yoriqnoma, 2013.

60. O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘llarida signallashtirish bo‘yicha yo‘riqnoma, Yoriqnoma, 2014.

61. Normatov Sh.N., Rixsiyev S.R., Butunov D.B Temir yo‘ldan foydalanish ishlarini boshqarish (1-qism), O‘quv qo‘llanma, 2015.

62. Xudayberganov S.Q., Aripov N.Q., Suyunbayev Sh.M., Kamaletdinov Sh.Sh., Temir yo‘ldan foydalanish ishlarini boshqarish (2-qism), O‘quv qo‘llanma, 2017.

63. Suyunbayev Sh.M., Tursunov Z.Sh., Aripov N.Q., Masharipov M.N. Temir yo‘ldan foydalanish ishlarini boshqarish (3-qism). O‘quv qo‘llanma. T. TDTrU, 2020.

64. Temir yo‘ldan foydalanish ishlarini boshqarish (I qism). Tursunov Z.Sh., Suyunbayev Sh.M., Ibragimova G.R.. O‘quv qo‘llanma. T.: 2018 y., 212 b.

65. Azizov Q.X. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 244 b.

66. Klinkovshcheyn, G.I., Afanasev M.B. Organizatsiya dorojnogo dvizheniya Transport, 2001. – 247 s.

67. Organizatsiya i bezopasnost dvizheniya. Uchebnoe posobie dlya stud. vьssh. ucheb. zavedeniy / I. N. Pugachyov, A. E. Gorev, Ye. M. Oleщenko. - M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2009. - 272 s.

68. Kak zashchitit intellektualnuyu sobstvennost v Rossii. Pod redaktsiey Korchagina A.D. - M.: INFRA-M,2019, 335 s.

69. Tolok I.Yu., Tolok T.V. Zashchita intellektualnoy sobstvennosti i patentovedenie. Uchebnoe posobie. Kazan. Nas. Issled. Texnol. Un-t. 2017. S.331.

70. O‘zR ning «Ixtiro, foydali model va sanoat namunalari haqida»gi 6.05.94,N 1063-XII dagi amalga kiritilgan qonunlari (Keyingi tuzatishlar bilan).

71. O‘zR IMA ning rasmiy nashri «Rasmiy axborotnoma», bir yilda 12 ta son. Toshkent. 2021 yy.

72. “How to get a European patent” / Guide for applicants. – Munich, ERO, 2016, 82 r.

IV.Internet saytlar

73. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

74. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

75. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

76. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet

77. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi

78. <https://ru.wikipedia.org>

79. <http://auto-dot.ru/>

80. www.inf.com

81. www.sas.com

82. <http://www.uza.uz.business>.

83. <http://www.press-service.uz>

84. <http://www.ifs.com>

85. <http://www.sas.com>

86. Axborot ta’lim tarmog‘i elektron kutubxonasi. www.ziyonet.uz

87. Har oylik «Железные дороги мира» ilmiy-texnik jurnalining sayti. www.zdmira.com

88. Har oylik «Железнодорожный транспорт» ilmiy-nazariy texnik-iqtisodiy jurnalining sayti. www.zdt-magazine.ru

89. Elektron kutubxona. <http://www.litmir.net>

90. Elektron kutubxona. <http://www.mirknig.com>

91. Elektron kutubxona. <http://lib.ru>

“ISHLAB CHIQILGAN”:

Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi

Direktor T.T. Shoymardonov
“___” _____ 2021 y.
M.O’.

Toshkent davlat texnika universiteti
Rektor S.M. Turabjanov
“___” _____ 2021 y.
M.O’.

Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi
Direktor Q.Q. Qurolov
“___” _____ 2021 y.
M.O’.

“KELISHILGAN”:

Kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish hamda muvofiqlashtirish boshqarmasi

Boshqarma boshlig‘i F.T. Esanboboev
“___” _____ 2021 y.
M.O’.